




SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 793,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 53,4 mlrd. so'mni (4,4 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tovar aylanmasi 740,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 98,7 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




2019-yilning mos davriga nisbatan viloyatning Termiz shahridan boshqa (0,5 % ga kamaygan) barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari



kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Denov (7,8 %), Sherobod (6,5 %) , Sariosiyo (5,9 %), Termiz (5,8 %) , Oltinsoy (4,4 %), Angor (3,4 %) va Uzun tumanlarida (3,4 %) qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga kamaydi va 53,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,7 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 740,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 4,2 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,3 % ga teng kelmoqda.



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%) da



Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi, (%)






Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,3 % ni tashkil etib, bu sektor bo'yicha Muzrabot (98,8 %), Uzun (98,1 %), Sho'rchi (97,7 %) va Qiziriq (96,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 6,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (20,0 %), Termiz (16,5 %) va Jarqo'rg'on tumanlarida (5,9 %) kuzatilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Denov tumani (21,7 %), Termez shahri (17,5 %), Sho'rchi (8,7 %), Muzrabot (6,2 %) va Jarqo'rg'on (5,5 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiya ta'sir ko'rsatdi.

Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	53,4	95,6	740,3	104,2
Termiz Sh.	27,8	84,3	111,2	104,3
Oltinsoy	1,5	153,7	41,1	103,2
Angor	1,3	84,7	30,7	104,3
Boysun	1,6	101,4	33,3	103,1
Muzrabot	0,6	274,0	48,8	102,4
Denov	5,4	123,9	167,0	107,3
Jarqo`rg`on	2,6	103,6	40,8	102,2
Qumqo`rg`on	1,3	85,0	37,0	103,4
Qiziriq	1,2	91,4	37,9	102,2
Sariosiyo	1,8	154,9	36,5	104,3
Termiz	3,2	113,5	16,0	104,3
Uzun	0,7	94,7	33,3	103,6
Sherobod	2,8	155,4	39,6	104,2
Sho`rchi	1,6	67,6	67,1	102,0



2020-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 308,9 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % ga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Surxondaryo viloyati	308,9	102,4
Termiz Sh.	958,2	99,1
Oltinsoy	247,7	103,2
Angor	247,1	102,2
Boysun	296,1	101,9
Muzrabot	357,2	102,2
Denov	458,9	106,5
Jarqo'rg'on	203,6	101,1
Qumqo'rg'on	161,0	101,4
Qiziriq	231,1	100,5
Sariosiyo	189,6	104,9
Termiz	180,0	104,4
Uzun	199,1	102,2
Sherobod	224,7	105,4
Sho'rchi	337,8	99,7

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar oyida o'tgan yilga nisbatan viloyatning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori




ko'rsatkilar Termez shahri (958,2 ming so'm), Denov (458,9 ming so'm) va Sho'rchi tumanida (337,8 ming so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.

Jumladan, 2020-yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,6 % ni tashkil etib, 12,4 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,1 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,9 % kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

**SURXONDARYO VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
(2020-yil yanvar)**

Yanvar oyida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 182,2 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 33,8 mlrd. so'mni tashkil qildi (o'sish sur'ati 100,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra-148,4 mlrd. so'mni tashkil qildi (o'sish sur'ati 6,1 %)


**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**





Ko'rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, viloyat ulgurji savdo aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Termez shahri (90,7 %) , Oltinsoy (97,1 %) va Denov(99,5 %) tumanlarida . Eng yuqori o'sish esa Muzrabot (188,4 %), Qumqo'rg'on(143,9 %), Sho'rchi(143,9 %) va Jarqo'rg'on(113,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)da**




Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajmi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra, 148,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 % ga o'sdi. Ushbu



sektoring umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 81,5 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Sherobod(99,5 %), Angor(99,3 %), Sariosiyo(99,1 %), Qiziriq (99,1 %),Boysun (98,9 %) va Termiz (97,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik biznesning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 18,5 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning ulgurji savdo aylanmasining aksariyati Muzrabot (72,1%) , Qumqo'rg'on (59,1%) va Jarqo'rg'on (25,9 %) tumanlarida kuzatildi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik korxonalar (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	182,2	104,9	33,8	100,0	148,4	106,1
Termiz sh.	38,4	97,0	12,6	82,9	25,8	105,8
Oltinsoy	10,4	97,1	2,0	72,7	8,4	105,5
Angor	10,1	105,7	0,1	99,9	10,0	105,7
Boysun	2,5	104,5	0,0	52,0	2,5	105,6
Muzrabot	5,1	188,4	3,7	267,3	1,4	105,4
Denov	28,0	99,5	6,1	79,4	21,9	107,1
Jarqo'rg'on	13,7	113,5	3,5	133,9	10,2	107,7
Qumqo'rg'on	5,5	143,9	3,3	191,3	2,2	106,1
Qiziriq	5,2	107,0	0,1	392,0	5,1	106,4
Sariosiyo	10,3	103,4	0,1	19,6	10,2	107,6
Termiz t.	20,5	103,5	0,4	63,4	20,1	104,9
Uzun	10,2	103,8	0,5	85,3	9,7	105,1
Sherobod	16,8	105,5	0,1	57,4	16,7	106,0
Sho'rchi	5,5	126,4	1,3	364,5	4,2	105,4

Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi
tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
(0371) 230-85-82